

Xakimov Abdumuhmmad Isroilovich

Farg'ona tumani 1-sonli kasb-hunar maktabi katta o'qituvchisi

Dehqonov Azizbek Mahmudovich

Farg'ona tumani 1-sonli kasb-hunar maktabi o'qituvchisi

Esonaliyev Ilyosjon Ilhomjonovich

Farg'ona tumani 1-sonli kasb-hunar maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mактаб va kasb-hunar maktabi o'qувчилари uchun web sahifa, web sayt yaratish haqida to'liq ma'lumot berib o'tilgan. Shuningdek, maqolada mazkur dastur haqida uning ishlatalishi muallif tomonidan misollar orqali tushuntirilgan.*

Kalit so'zlar: Matn satri, grafik ob'ekt, grafik ob'ekt qismi, Hyperlink buyrug'i URL, ajratib ko'rsatish, sayt hujjati URL da qidirish, E-mail uchun giperaloqa, Edit Hyperlink darchasi, Target Frome ro'yxati, General qo'shimcha varag'i, Location maydoni, Loop.

Intemetda axborotlami joylashtirish va ulami kompyuter ekranidagi ko'rinishi qulay bo'lishi uchun web-sahifalardan foydalaniladi. Web-sahifa (inglizcha - Web page) - bu HTML fayl kengaytmasiga ega bo'lgan gipermatnli fayldir.

Har xil web-sahifalarga tarqatilgan va o'zaro bog'langan hujjat gipermatn deyiladi. Unga matn, rasm, ovoz, video va animatsiya kabi ma'lumotlar joy-lashtirish mumkin.

Web-sahifada ma'lumotlar sahifa ko'rinishida beriladi. Bu sahifalar, odatda, HTML hujjat, ya'ni HTML tilida yozilgan hujjat deb qaraladi. Bu holda yozilgan hujjatlami ko'rish uchun maxsus dasturlar ishlataladi. Bunday dasturlar Brauzer (ko'rvuchi)lar deb ataladi. Windows muhitida standart ish-latiladigan Brauzer bu Internet Explorer hisoblanadi.

Web-sayt (inglizcha - Website, web - o'rgimchak to'ri, site - joyi) - bu bir nechta web-sahifalarni kompyuter tarmog'ida bitta manzilda birlashtirilgan fayllar to'plamidir (Domen ga yoki IP ga ega bo'ladi).

Internetda axborotlami joylashtirish va ulami kompyuter ekranidagi ko'rinishi qulay bo'lishi uchun web-sahifalardan foydalaniladi. Web-sahifa (inglizcha - Web page) - bu HTML fayl kengaytmasiga ega bo'lgan gipermatnli fayldir. Har xil web-sahifalarga tarqatilgan va o'zaro bog'langan hujjat gipermatn deyiladi. Unga matn, rasm, ovoz, video va animatsiya kabi ma'lumotlar joylashtirish mumkin. Web-sahifada ma'lumotlar sahifa ko'rinishida beriladi. Bu sahifalar, odatda, HTML hujjat, ya'ni HTML tilida yozilgan hujjat deb qaraladi. Bu holda yozilgan hujjatlarni ko'rish uchun maxsus dasturlar ishlataladi. Bunday dasturlar Brauzer (ko'rvuchi)lar deb ataladi. Windows muhitida standart ishlatiladigan Brauzer bu Internet Explorer hisoblanadi. Web-sayt (inglizcha - Website, web - o'rgimchak to'ri, site - joyi) - bu bir nechta web-sahifalarni

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

kompyuter tarmog‘ida bitta manzilda birlashtirilgan fayllar to‘plamidir (Domen ga yoki IP ga ega bo`ladi). Domen - bu biror-bir serverda joylashgan saytga olib boradigan manzildir. Barcha web-saytlar qaysidir serverda joylashgan bo`ladi. Aslida Siz hosting xizmatidan foydalanib, saytingiz ma’lumotlarini qaysidir serverga joylashtirganingizda saytingiz IP manzilga ega bo`ladi. Masalan: 94.100.180.199. Agar domen bo'limganida yaratilgan web-saytni yuklash uchun brauzerda 94.100.180.199 raqamlar yoziladi. Hosting - bu web-sayt uchun joy ajratib beruvchi xizmat turidir. Odatda domen beruvchi kompaniyalarda ham hosting xizmati bo`ladi. Hosting va domenni bir kompaniyadan yoki alohida kompaniyalardan ham olish mumkin. Web-saytlar uchun hosting beruvchi kompaniyalarda katta hajmdagi maxsus serverlar mavjud. Ular tinimsiz ishlab turish orqali web-saytlarning ishlashini ta‘minlaydi. Web-dizayn - bu yaratiladigan web-saytlarga texnik ishlov berish va axborotlarni tizimli ravishda shakllantirishdir.

Web-saxifa – alohida tugallangan gipermatnli hujjatlar bo’lib, ular birgalikda «sayt» ni tashkil etadilar. Har gal internetda ishlash jarayonida Siz albatta Web-saxifalardan birini ekranda ko’rasiz.

Saytning tashkil etuvchisi bo’lgan Web-saxifaning o’zi alohida ekranga chiqarilishi ham mumkin. Har bir Web-sahifa o’z adresiga ega. Umuman Web-sahifa yaratish uchun HTML (Hyper Text Markup Language – ma’nosи gipermatnni belgilash tili) tili ishlataladi. Bu til 1989 yilda Jenevada Tim Berners-Li (Tim Berners-Lee) tomonidan yaratilgan. Keyinchalik Tim Berners-Li «Internet otasi» nomiga sazovor bo’lgan. Til dasturlash tili emas, faqat Web-saxifa yaratish uchun mo’ljallangan. Web-saxifada biror ma’lumotlarni qayta ishlash algoritmlarini o’rnatish uchun Java tilida tuzilgan dasturlardan foydalaniladi.

HTML tili o’zining sintaksisi va semantikasiga ega. Uning tarkibini bir necha elementlar tashkil etadi. Har bir Web-saxifa chekli sondagi elementlardan tashkil topadi. Tilning asosiy tushunchalaridan biri Teg (Tag) hisoblanadi. Teg – elementning boshi va oxirini ko’rsatuvchi belgidir. Teg elementning saxifadagi ta’sir ko’rsatish doirasini aniqlaydi va bir elementdan boshqa elementni ajratib turadi. Web-saxifaning matnida teg <va> belgilari orasiga olinib yoziladi. Teg oxiri esa “/” (og’ma chiziq) belgisi bilan yakunlanadi.

Atribut tushunchasi tilda elementning parametrini yoki xususiyatini aniqlaydi. Masalan shrift atributi deganda, biz shrift kattaligi, turi, rangi, yozilish usulini tushunamiz. Web-saxifadagi boshqa bir asosiy tushuncha gipermurojaat (gipersso’lka) tushunchasidir. Gipermurojaat matnning bir bo’lagi bo’lib, undan boshqa bir faylga yoki ob’ektga murojaat qilish mumkinligini anglatadi. Gipermurojaat bir hujjatdan boshqa bir hujjatga o’tishda yoki aksincha qaytishda ishlataladi. Freym (Frame) tushunchasi tilda ikki xil ma’noda ishlataladi. Birinchisi hujjatni alohida o’z oynasida ko’rib chiqish sohasi bo’lsa, ikkinchisi murakkab grafikli (animasiyalı) faylda qayta

ishlash va tasvirlash. HTML tilida yaratilgan Web-saxifa tashqi xotiraga .html kengaytma nomi bilan saqlab qo'yildi.

Web-sahifa yaratishning quyidagi usullari mavjud:

Oddiy matn muharriri yordamida (Bloknot dasturi yoki shunga o'xshash muharrirlar);

MS Word matn protsessori yordamida:

Maxsus Web-saxifa yaratishga mo'ljallangan muharrir dasturlari yordamida, masalan, Front Page 2000 muharriri.

Internet ehtiyoji uchun SGML tilining malum bir qismi tanlab olindi va HTML (Hyper Text Markup Language) deb nomlandi. HTML tilida yozilgan Web sahifa faylida axborotning qanday tasvirlanishi haqidagi yo'l yo'riqlar ketma – ket joylashgan bo'ladi. Bu fayl oddiy matnli fayl bo'lib uni maxsus brauzer datsturlarsiz o'qish qiyin. Grafik rasmlarni esa umumman ko'rib bo'lmaydi chunki uning o'rnida brauzer dasturga biror rasm kerakligini ko'rsatuvchi TEG turadi. Agar biz o'z Web sahifamizni yaratmoqchi bo'lsak, albatta HTML tilini yaxshi bilishimiz kerak bo'ladi. HTML ning konstruksiyasi TEG lar deyiladi. Brauzer TEG larni oddiy matnlardan farqlashi uchun ular burchak qavslarga olinadilar. TEG tasvirlash jarayoni hatti harakatlarining boshlanishini bildiradi. Agar bu harakat butun hujjatga talluqli bo'lsa, bunday teg o'zining yopiluvchi juftiga ega bo'lmaydi. Juft teqlarning ikkinchisi birinchisining harakatini yakunlaydi. Masalan, har bir Web sahifa <html> tegi bilan boshlanib </html> tegi bilan yopilishi kerak. Etibor bergan bo'lsangiz yopiluvchi teg ochiluvchidan « / » belgisi bilan farq qiladi. Teg nomlari katta yoki kichik harflar bilan yozilishi mumkin, bularni brauzer bir xil qabul qiladi. HTML tilida boshqa kompyuter tillaridagi kabi izoh berish imkoniyati mavjud. Izoh quyidagi «<- ->» va «- ->> belgilar orsiga yoziladi.

Teglar nima? Teglar bu HTML tilidagi buyruqlardir. Biz teqlarni deskriptorlar deb ham atashimiz mumkin. Har qanday web sahifalardagi ma'lumotlar albatta teglar yordamida o'qish uchun qulay va ko'rinishli qilib yaratiladi.

Har qanday Web sahifa ikkita qismdan tashkil topadi. Bular sarlavha qismi va asosiy qism. Sarlavha qismida Web sahifa haqidagi malumot joylashadi, asosiy qismda esa Web sahifaning mazmuni bilan tasvirlanish qoidalari joylashadi. Sarlavha qismi quyidagi ochiluvchi <head> va yopiluvchi </head> teglari orasida joylashadi. Asosiy qism esa <body> va </body> teglari orasida joylashadi. Odatda sarlavha qismi oldidan qo'llanilayotgan HTML standartlari haqida malumot yoziladi. Har qanday Web sahifaning umumiyo ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

Misol 3_1:

```
<html>
<head>
<title>
hujjat sarlavhasi
```

```
</title>
</head>
<body>
Asosiy qism
</body>
</html>
```

Web — sahifalari yaratish uchun turli dasturiy vositalar qo'llaniladi. Bular orasida eng soddalaridan biri FrontPage Expressdir.

FrontPage Express oddiy matn muharrirlariga ancha o'xshash bo'lib, ayrim qo'shimcha imkoniyatlarga ega:

- Sahifaga Fon tasviri va rang beradi.
- Sahifaga WebBot —komponentlari, “dinamik ob'ektlar”, vaqt elementlarini qo'yish mumkin
- Izlash vositalarini Web-sahifaga kiritish imkoniyatini beruvchi komponentlar qo'shilgan.
- ActiveX boshqarish elementlarini ishlatish mumkin.
- Razmetka HTML buyrug'ini ishlatib HTMLning teglarini o'rnatish mumkin.
- HTML teglarini bevosita Web-sahifada ko'rish va tuzatish mumkin.

Teqlarni FrontPage Express dasturida rangli bezash ularni matnda oson topishga imkon beradi.

Harflar turini o'zgartirish

- Kerakli matn belgilanadi.
- Qurollar paneli qatoridan " Изменение шрифта " nomli tugmacha faollashtiriladi va ekranda yoritilgan shrift turlaridan biri tanlanadi.
- Bu shrift turlaridan bugungi kunda ommaviy bo'lgan (Arial, Times New Roman va Courier) larini tanlagan ma'qul.

ADABIYOTLAR:

1. С.В. Глушаков, И.А. Жакин, Т.С. Хачиров Программирование web-страниц. «Феникс», Ростов-на-Дону, «Фолио», Харьков, 2006.
2. Елена Бенкен. PHP, MySQL, XML программирование для интернета. Санкт-Петербург, «БХВ- Петербург» 2007.
3. Кристина Пейтон, Андре Миллер. PHP 5& MySQL 5. Москва «Бином», 2007.
4. Максим Кузнецов, Игорь Симдянов. MySQL на примерах. Санкт-Петербург, «БХВ- Петербург» 2007.